



G'AFUR G'ULOM TARJIMALARIDA SO'Z TANLASH MAHORATI ("QIROL LIR" TARJIMASI MISOLIDA)

Aslonov Yosin Farrux o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18739732>

ARTICLE INFO

Received: 13th February 2026

Accepted: 15th February 2026

Published: 23rd February 2026

KEYWORDS

G'afur G'ulom, so'z tanlash, tarjimonlik mahorati, "Qirol Lir", bilvosita tarjima, bevosita tarjima, milliylik, qiyosiy tahlil, badiiy obraz.

ABSTRACT

Mazkur maqolada G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyatida so'z tanlash masalasi Vilyam Shekspirning "Qirol Lir" asari tarjimasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda G'afur G'ulomning bilvosita tarjima jarayonida badiiylik, milliylik va o'zbekona ruhni saqlashga qaratilgan yondashuvi yoritiladi. Asarda uning tarjimalarida leksik birliklardan, o'xshatish va obrazlardan foydalanish usullari Jamol Kamolning bevosita ingliz tilidan qilgan tarjimasi bilan qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Tahlil jarayonida G'afur G'ulomning xalq og'zaki ijodi, maqol va ramziy obrazlarga tayangan holda matnni o'quvchiga yaqinlashtirgani asoslab beriladi. Maqolada tarjimonlarning individual uslubi, so'z tanlashdagi farqlar va ularning asar mazmuniga ta'siri ilmiy dalillar asosida ochib beriladi.

O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy, rus adabiyoti ahili orasida Pushkin qanday e'tibor va o'ringa ega bo'lsa, jahon adabiyoti durdonasi Vilyam Shekspir ingliz adabiyotida o'z ijodi bilan bundan bir qadar kam bo'lmagan darajada xurmat- e'tiborga egadir. Uning asarlari mazmun teranligi, obrazlar tizimi va badiiy ifoda imkoniyatlari bilan turli xalqlar adabiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Shekspir tragediyalari, xususan "Qirol Lir", o'zbek tarjimachiligi tarixida ham muhim manba sifatida qaraladi. Uning "Otello", "Qirol Lir", "Hamlet" asarlarining nomini bir marotaba shunchaki bo'lsa ham eshitmagan odam bo'lmasa kerak, garchand bu asarlar o'zga xorij tilida bo'lsa ham. Bunda korinib turibdiki uning asarlari o'zbek tarjimashunosligi olamida ham o'rniga ega. Shuni dalil qilib aytish mumkinki, o'zbek tarjimashunosligining poydevorini qurgan insonlar ham Vilyam Shekspirning ijodiga yuzlanmasdan o'tib ketishmagan.

Shekspirning asarlarini tarjima qilishda juda ko'p yozuvchilar, nazm shaydolari, tarjimonlar ishtirok etgan. Xususan G'afur G'ulom, Yashin, Uyg'un, Shayxzoda, Turob To'la, Q. Mirmuhammedov kabilarni aytishimiz mumkin. Ushbu ijdokorlar asosan Shekspir asarlarini rus yoki boshqa tilga bo'lgan tarjimasidan bilvosita tarjima qilishgan, ammo so'nggi yillarda Jamol Kamol uning asarlarini to'g'rida to'g'ri ingliz tilidan tarjima qildi.

G'afur G'ulom ham Shekspir asarlarini tarjima qilgan. Ijodkor ham nazmda ham nasrda birdek ijod qilib qolmasdan, tarjimonlik sohasida ham o'z o'rniga ega ijodkor hisoblanadi. G'ulom tarjimonlik sohasiga o'tgan asrning yigirmanchi yillarida kirib kelgan. U Vladimir Mayakovskiyning "Во весь голос", "Hayqiriq", Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" va bunda tashqari Rustavelli, Nizom Hikmat, Nizomiy, Dante, Bomarshe kabi

jahon adabiyoti ijodkorlarining asarlarini o'zbekchaga tarjima qilgan. Ijodkor qilgan tarjimalar hozirgi zamonaviy mutarjimlar qilgan tarjimalarda kam baholanmaydi. G'afur G'ulom o'z tarjimalariga XX asr madaniyatining ruhiyatini singdirgan. Shekspir asarlari ham G'afur G'ulom tarjimalari orasida o'z o'rniga ega hisoblanadi.

Tarjima jarayonida har bir tarjimon o'z badiiy didi, tilga bo'lgan sezgirligi va asar mazmunini anglash darajasiga qarab o'ziga xos yondashuvni tanlaydi. Shu nuqtai nazardan, G'afur G'ulom tarjimalari o'zbek adabiyotining boy she'riy an'analari bilan chambarchas bog'langan holda Shekspirning asarlaridagi dramatik va emotsional qatlamlarni o'quvchiga yetkazishga xizmat qilgan. Uning tarjimalarida nafaqat matnning mazmuni, balki ritm, obrazlarning ichki dunyosi va so'z tanlashdagi mahorat ham muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari adibing tarjimalarida diqqatga sazovor jihat shundaki, u har bir personajning o'ziga xos nutq uslubini, hissiy holatini va xarakterini o'zbek tilida jonli va tabiiy tarzda aks ettiradi. Masalan, "Qirol Lir" tragediyasida Lir qirol, uning qizlari va boshqa personajlarning suhbatlari orqali voqealar rivoji, ichki kurashlar va dramatik ziddiyatlar o'quvchiga to'liq yetkaziladi. Bu esa tarjimonning so'z tanlashdagi noziklik va til boyligini chuqur anglashini ko'rsatadi.

Shu o'rinda aytishimiz kerakki, Jamol Kamol ham tarjimonlik sohasida ijod qilgan bo'lib, bu sohada yuksak o'ringa egadir. U ham Shekspir asarlarini tarjima qilgan bo'lib, faqat Jamol Kamolning boshqa yuqorida keltirib o'tilgan ijodkorlardab farqi u bu asarlarni ingliz tilidan o'z asliyat tilidan to'g'ridan to'g'ri tarjima qilgan. "Qirol Lir" asarini Jamol Kamol ham mahorat bilan xuddi shu yo'nalishda o'zbekchalashtirgan.

Bu ikkala asarni bir qancha farqli jihatlari bor, lekin ma'no jihatdan deyarli o'zgarish yo'q. Misol uchun G'afur G'ulom asarda Lirning bir ayoni ya'ni qiziqchisini yigirmanchi asrning boshlariga xos bo'lgan nom-"masxara"- bilan ataydi. Ammo Jamol Kamol tarjimasiga qaraydigan bo'lsak, bu nom biroz o'zgarganini, "masxaraboz" deb atalganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari bu ikki asarning boshqa qismlarida ham bir qancha farqli jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan:

"To'g'ri gap-bu hovli qo'riqlaydigan ko'ppakka o'xshaydi, uni qamchi bilan haydaydilar, ammo hurmatli tozilarchi, sasib ketganlarida ham, issiq uyda, gulxan yoniday yotishlari mumkin"

Jamol Kamol tarjimasiga qaraydigan bo'sak, xuddi shu misra quyidagicha keladi:

"Haqiqat qo'riqchi itga o'xshaydi, uni nuqul tashqariga haydashadi. Xushomad esa xuddi tozi, sasib-bijg'ib yursa ham uyning to'rida yashaydi".

BU yerda ikkala ijodkor ham bir narsani ifodalash uchun bir xil o'xshatishdan foydalangna, lekin Jamol Kamol tarjimasiga qo'shilgan ikkinchi o'xshatish manbasi ya'ni xushomand o'quvchilarga ushbu satrlarni ko'proq tushunishga yordam beradi.

G'afur G'ulom tarjimonlik mahoratini namoyish etib, bir misrani quyidagicha tarjima qilgan bo'lsa,

Topsang yelib yugurma.

Ikki o'ndir bu yigirma.

Jamol Kamol esa, xuddi shu strlarni mana shunday tarjima qilgan:

Shunda hisob xo'p bo'lur,

Yigirmadan ko'p bo'lur....

Mazkur misralar oxirida keltirilgan yigirma soni G'afur G'ulom tarjimasida haqiqiy o'zbek maqoli hisoblanmish "Ikki o'n besh- bir o'ttiz" ga yaqinroq ma'noni o'zida mujassamlashtirib kelgan.

Bilamizki, nazm tarjimasida tarjimon turli xil o'xshatishlar, sifatlashlar, mubolag'a kabi she'riy san'at vositalaridan unumli foydalanadilar.

Sen o'zing axir boshqa hamma otlaringni ulashib bo'lding. Bu ot bilan esa onadan tug'ilgan eding.

Mazkur misrada G'afur G'ulom o'zbek tilidagi omonimlarga murojaat qilib, "ot" so'zini ikki joyda turli ma'nolarda qo'llaydi. Ushbu misralarga Jamol Kamol tarjimasida qaraydigan bo'lsak, unda "unvon" shaklida kelganini ko'rishimiz mumkin. G'afur G'ulom tarjimasidagi "ot" so'z birinchi gapda "hayvon" ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, buni biz unga nisbatan qo'llanilgan "ulashmoq", "sovg'a qilmoq" so'zlari orqali fahimlab olsak bo'jadi. Ammo keyingi gapdagi " bu ot bilan esa tug'ilding" jumlasida esa "ot" unga sinonim so'z bo'lmish "ism" ma'nosida qo'llanilganligidan "ism" ya'ni "unvon"ga ham to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, G'afur G'ulom bu yerda "Tajnis" san'atidan mukammal foydalangan va o'quvchini ma'noni tushinish uchun o'ylashga majbur qilgan.

Sevinchdan yig'lashdi ular, men esa yig'ladim sharmandalikdan.

Bolaga aylanib qoldi qirolim, boldi yana masxaraboz ham....

Ushbu misralarda Jamol Kamol qirol Lirga nisbatan ikki sifat bermoqda. G'afur G'ulom tarjimasida esa bu sifatlar qisqartirilmogda va faqat yosh bolalik sifati berilgan.

Ta'kidlab o'tishimiz lozim, G'afur G'ulom tarjimasida o'zbekona ruh ustunlik qiladi, buning isbotini esa quyidagi startda ko'rishimiz mumkin.

Chumchuq sho'rlik uzoq muddat hakkani boqdi

Hakka o'sib, u chumchuqning miyyasin qoqdi.

Jamol Kamol tarjimasida "hakka" so'zi o'rniga "kakku" ishlatilgani namoyon bo'ladi. Hakka qushi o'zbek adabiyotida qadimdan buyon yolgo'nchi insonlar ramzi bo'lib kelgan, kakku esa deyarli o'zbek adabiyoti ertaklarida uchramaydi va ayrimlarda bu qush haqida tasavvur ham yo'q. Ammo kakku kabi obraz adabiyotda xuddi hakkaning xarakterida kelishi sir emas. Shuni aytib o'rish kerakki, G'afur G'ulom bu sahna asarini tarjima qilgan vaqtda hali oddiy xalq orasida teatrqa nisbatan qiziqish unchalik rivojlanmagandi. G'afur G'ulom esa buni hisobga olgan holda asarni tushunarli bo'lishi uchun oddiy tilda xalqqa tushunarli bo'lgan obrazlarni va o'xshatishlarni qo'llash orqali tarjima qilgan. G'afur Gulom o'z hissiyotlarini asarga berganligi uning Lukretsiya obrazi uchun bergan tasviridan ham ma'lum.

Sizdan o'tinaman, garchi amr etish mumkin bo'lsa ham.

Bu misralar Lukretsiyaning tilidan o'z otasiga nisbatan aytilgan va bunda biz uning otasiga nisbatan o'ta yomon munosabatda bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin. G'afur G'ulom tarjimasida esa "amr etmoq" so'zi o'rniga "o'zimiz qilishimiz ham mumkin" jumlasida qo'llanilgan.

Yuqoridagi ikki tarjima solishtirmasidan biz shunday xulosa qilishimiz mumkin. G'afur G'ulomning "Qirol Lir" tarjimasida so'z tanlash masalasi tasodifiy emas, balki chuqur badiiy va milliy tafakkur mahsuli ekanini ko'rsatdi. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, G'afur G'ulom bilvosita tarjima yo'lidan foydalangan bo'lsa-da, maqol, tajnis, omonim va xalqona obrazlar orqali asar mazmunini o'zbek o'quvchisiga yaqinlashtira olgan. Jamol Kamol tarjimasida esa

asliyatga sodiqlik ustuvor bo'lib, mazmun aniqligi ta'minlangan, biroq ayrim hollarda milliy tasavvur ikkinchi planga surilgan. Bu holat tarjimada so'z tanlash nafaqat estetik, balki semantik va madaniy ahamiyatga ham ega ekanini tasdiqlaydi. Ushbu tarjima qilingan asarlar tarjimonlar hayotida butun umr o'chmas iz qoldiradi. Chunki tarjimonlar vafot etgandan keyin ham uning tarjimalari unga maqto'v yoki ta'na olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vilyam Shekspir "Tanlangan asarlar" besh jildlik, ikkinchi jild, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1981.
2. Vilyam Shekspir "Saylanma" uch jildlik, birinchi jild, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashryoti, 2007.
3. Vilyam Shekspir "Tanlangan asarlar" besh jildlik, uchinchi jild, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1983.
4. "G'afur G'ulom ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi / Harmony of national and universal ideas in the work of Gafur Gulyam / Гармония национальных и общечеловеческих идей в творчестве Гафура Гуляма" // Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: TDYU, 2023. – 272 bet, 194-197-bet.

INNOVATIVE
ACADEMY